

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

application of knowledge in the digital economy.....	360
Z.F.Kasimova	
Beshik to'yi marosimi folklorining o'rganilishiga doir.....	366
M.Y.Mamadjonov, F.A.Bekmuxamedova	
“Mehmon” so'zining o'zbek va ingliz maqollarida ijobiy hamda salbiy ma'noda qo'llanilishi	369
S.A.Mahmudova	
Integrativ yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarda ijtimoiy-kreativ kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik masalalari.....	373
S.J.Saidmuradova, X.Xolmurodova	
Milliy xarakter va badiiy psixologizm.....	378
G.I.Yuldasheva	
Kompyuter modellarini o'quv jarayonlarida qo'llash tamoyillari.....	383
M.M.Кахарова, З.М.Дадахонова	
Цели и принципы контроля в образовательном процессе	389
A.R.Saydullayeva	
Gender yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarni tayyorlash tizimini takomillashtirish zarurati va istiqbollari	393
T.Akhmedova	
The impact of games on the development of pre-school children.....	398
U.Sh.Abduraximova	
Bo'lajak tarjimonlarning lingvomadaniy va kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning pedagogik mazmuni.....	402
J.Q.Mirzajonov	
Bo'lajak ijtimoiy ish xodimlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish zarurati va pedagogik imkoniyatlari.....	406



UO'K: 378.014.15

**BO'LAJAK TARJIMONLARNING LINGVOMADANIY VA KOMMUNIKATIV
KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MAZMUNI**

**ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ СОДЕРЖАНИЕ РАЗВИТИЯ ЛИНГВОКУЛЬТУРНОЙ И
КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ ПЕРЕВОДЧИКОВ**

**PEDAGOGICAL CONTENT OF DEVELOPING LINGUISTIC CULTURAL AND
COMMUNICATIVE COMPETENCE OF FUTURE TRANSLATORS**

Abduraximova Umida Shuxratovna
Farg'ona davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada bo'lajak tarjimonlarning lingvomadaniy va kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning pedagogik mazmuni tadqiq qilingan. Shuningdek, xorijiy tillarni lingvomadaniy va kommunikativ maqsadlarda o'qitilishi nutq mavzulari, ko'nikma va malakalarga qo'yiladigan talablar tahlil qilingan.

Аннотация

В данной статье изучается педагогическое содержание развития лингвокультурологической и коммуникативной компетентности будущих переводчиков. Также были проанализированы требования к темам речи, навыкам и квалификации преподавателя иностранных языков в лингвокультурных и коммуникативных целях.

Abstract

In this article, the pedagogical content of developing linguistic, cultural and communicative competence of future translators is studied. Also, the requirements for speech topics, skills and qualifications of teaching foreign languages for linguistic, cultural and communicative purposes were analyzed.

Kalit so'zlar: pedagog, lingvomadaniy, kommunikativ, tizim, takomillashtirish, kompetensiya, madaniyat, lingvomadaniyat, pedagogika.

Ключевые слова: педагог, лингвистический, коммуникативный, система, совершенствование, компетентность, культура, лингвокультура, педагогика.

Key words: pedagogue, linguistic, communicative, system, improvement, competence, culture, linguistic culture, pedagogy.

KIRISH

Jahonda jamiyatning ijtimoiy buyurtmasidan kelib chiqib, xorijiy tillarni lingvomadaniy va kommunikativ maqsadlarda o'qitilishi nutq mavzulari, ko'nikma va malakalarga qo'yiladigan talablar hamda til materialidan iborat chet til o'qitish mazmunini modernizatsiyalashtirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash metodikasini takomillashtirish, bo'lajak pedagoglarning lingvomadaniy va kommunikativ kompetentligini rivojlantirishga bo'lgan extiyojni yanada kuchaytirdi. Oliy pedagogik ta'limda xorijiy tillarni o'qitishda o'quvchilarning til o'rganishga ishtiyoqi, layoqati va munosabati kabi individual jihatlarini, tafakkur, xotira, diqqat kabi yoshga oid psixologik xususiyatlarini, til tajribasi va til ta'lim sharoitini inobatga olib sifat va samaradorlikni oshirish bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Bo'lajak tarjimonlarning lingvomadaniy va kommunikativ kompetentligini rivojlantirish masalalari ko'plab G'arb, MDH va mamlakatimiz olimlari tomonidan tadqiq etilgan va bugungi kunda ham mazkur jarayon tizimli amalga oshirilib kelinmoqda. Milliylik, lisoniy adekvatlik, lingvomadaniy va kommunikativlik masalalari Sh.Abdullayev, I.Vladimirova, M.Javbo'riyev, Sh.Isakova, N.Isamuxamedova, G.Salomov, I.Komilov, S.Mirzaqulov, I.G'afurov, N.O'rmonova, Z.Sodikov, R.Shirnova, Z.Isomiddinov, E.Ochilov, Z.Xudoyberganova, D.Ashurova, G.Ergasheva, H.Mustafayeva, T.Madraximov tadqiqot ishlarini olib borishgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

O'zbekiston Respublikasida yoshlarni chet tillarini o'rganishlari uchun har jihatdan bilimli va mustaqil fikrli kishilar qilib tarbiyalash yuzasidan bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. «Mamlakatimizda bir necha xorijiy tillarni biluvchi zamonaviy kadrlar tayyorlash, xorijiy tillar bo'yicha ilmiy ishlar olib borish, til o'rgatish metodologiyasini takomillashtirish lozimligi» [1] kabi vazifalar belgilangan. Ya'ni chet tilini kommunikativ faoliyat ko'rsatish, shaxsga yo'naltirilgan, kompetensiyani egallashga mo'ljallangan integrativ yondashuv asosida o'qitish metodikasini takomillashtirish; xorijiy tajribalarni o'rganish; bo'lajak xorijiy til o'qituvchilari va tarjimonlarni tayyorlashda innovatsion pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarjimaga oid amaliyotlar tahlilida tarjima usullarini tarjima uslublaridan farqlash maqsadga muvofiqdir. Usul – qo'yilgan maqsadga erishishning asosiy yo'li bo'lib, qilinadigan harakatlarning mavjud qonunlarini aks ettiradi. Bir tildan boshqa tilga o'tishning ikkita usuli bor: birinchisi bir tilga mansub so'z yoki belgidan boshqa tilga mansub so'z yoki belgiga to'g'ridan-to'g'ri o'tish, ikkinchisi esa aylanma yo'l orqali – avval bir tilga mansub belgidan mo'ljaldagi yoki predmetli vaziyatga va faqat shundan keyin o'giriladigan tilga mansub belgiga o'tishdir. Ilmiy manbalarda tarjimaning bu ikki usulidan birinchisi belgili, ikkinchisi esa ma'noli deb nomlanadi.

Metod yoki boshqacha aytganda, tarjima uslubi, odatda, xususiy masalani hal qiladi, ya'ni tarjima jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni yengib o'tishga yordam beradi. Tarjima uslublari, o'z navbatida, yana ikki guruhga bo'linadi:

- 1) tarjima mutanosibliklari;
- 2) tarjima tuzilishining o'zgarishi.

Tarjimani asliyat bilan taqqoslash shuni ko'rsatadiki, o'girish jarayonida asliyat tilning muayyan birliklari ma'nosi o'girilayotgan tilning bir xil birliklari yordamida uzatiladi (masalan: uy - house, xona-room, tree - daraxt). Til birliklari nisbatan barqaror ma'noga ega. Shuning uchun tillardagi (bizning holatda hind-yevropa til oilasiga mansub tillarda) bir xil predmetli holatlar o'xshash sintaktik konstruksiyalar yordamida tarjima qilinadi.

Bir tildan boshqa tilga tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklar hamda tarjimada tilning «ruhiyati» yo'qolishi, ko'pincha, poetik asarlarni tarjima qilishda kuzatiladi. Ularning barchasi metodologik jihatdan noto'g'ri, chunki isbotlashni tilga tatbiq etib bo'lmaydi hamda kirishda berilayotgan va chiqishda olinayotgan axborotlar turli qatlam va ko'lamga tegishli bo'lgani uchun xulosalarning to'g'riligiga qo'yiladigan eng oddiy mantiqiy qoidalarga to'g'ri kelmaydi. Masalan, nemis tilida artiklning mavjudligi nemislarning narsa-hodisalarni jinsiga aloqador qandaydir belgilariga qarab qabul qiladi, degan xulosani bermaydi. Xuddi shu kabi ergativ qurilishga ega bo'lgan abxaz tilida so'zlashuvchilar ish-harakatning subyekt va obyektini farqlay olishga qodir emas, degan xulosaning kelib chiqishi ham mantiqqa ziddir.

Og'zaki (sinxron) tarjima qilish uchun tarjimonning professional kompetensiyasi (bilim, malaka va ko'nikmalar yig'indisi) quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo'lishi lozim [2]:

- til kompetensiyasi (asliyat va tarjima tillarini bilish);
- kommunikativ kompetensiya;
- tarjima kompetensiya (tarjima qilish malakasi);
- texnik kompetensiyasi (axborot bilan ishlash malakasi);
- shaxsiy fazilatlar (xotirani rivojlantirish):

O'qitishning asosiy bosqichida og'zaki tarjima bilan bog'liq faol kompleks treningida xotira treningi, tildan tilga o'tish treningi, sur'at treningi, leksika ustida ishlash, transformatsiya treninglari amalga oshiriladi. O'qitishda foydalaniladigan mashqlarni tanlash ko'nikma va mahorat sirlarini shakllantirish zarurati bilan bog'liqligini taqozo qiladi. Ulardan eng muhimlari quyidagilardir:

- tinglash ko'nikmasi;
- mnemotexnika ko'nikmasi;
- transformatsiyalash ko'nikmasi;
- tildan tilga o'tish ko'nikmasi;
- nutqiy mexanizmlarni boshqarish ko'nikmasi;
- og'zaki nutq texnikasi ko'nikmasi;
- tarjima sur'ati;
- tarjima uchun mo'ljallangan matnni tinglash ko'nikmasi.

Kompetensiyalar ilmiy sohadagi nazariy bilimlar, aniq kasbiy vaziyatlarda bilimlardan foydalanish bo'yicha amaliy tajriba, shaxsning qadriyat bilan bog'liq jihatlarini o'z ichiga oladi.

Bugungi kunda xorijiy tillarni o'qitish metodikasi «(Inter)Cultural Awareness», «Language Awareness» va «Humanity» ta'lim konsepsiyalari asosida rivojlantirilmoqda.

«(Inter)Cultural Awareness» – madaniyatlararo muloqot konsepsiyasi dastlab Germaniyada shakllantirildi va tez orada g'arb mamlakatlarida ommalashdi. Ushbu konsepsiya asosida chet tillarni muloqot vositasi sifatida o'rgatish emas, balki talabalarni umumiy va nutqiy rivojlantirish, ya'ni uni chet til va o'zga madaniyatga qiziqtirish, unda kundalik hayotda duch kelinishi mumkin bo'lgan tilga e'tiborli munosabatda bo'lish va integratsiyalashayotgan Yevropadagi turmush sharoitlariga moslashish ko'nikmalarini shakllantirish hamda rivojlantirish maqsadi yotadi. Shu sababdan ham ushbu konsepsiyada chet til ta'limining mamlakatshunoslik jihatiga ustuvor ahamiyat qaratilgan.

«Language Awareness» – konsepsiyasi «Holistic approach» [2] nomi bilan ham ataladi va u chet tilni yangi bilimlarni egallash vositasi sifatida o'zlashtirilishi lozimligini targ'ib etadi. YA'ni xorijiy til ta'limining maqsadi chet til vositasida hayot haqidagi yangi bilimlarni o'zlashtirishdir. Lekin M.Villiams va R.Bednar Vigotskiyning nutq rivojlanish ontogenezi haqidagi nazariyasini «Holistic approach» deb nomlashni ma'qul ko'rishgan [4]. Ularning taxminicha, Vigotskiy o'rganilishi lozim bo'lgan bilimni kichik qismlarga ajratib, malaka va ko'nikmalar sifatida taqdim etish fikrini ma'qullamagan bo'lardi. Sababi, Vigotskiy har qanday o'rganiladigan qismning asosini mazmun tashkil etishi lozimligini uqtiradi. Ushbu xulosa ta'sirida Yevropa mamlakatlari, Qo'shma Shtatlar va boshqa mamlakatlarda CLIL (Content and Language Integrated Learning) yondashuvi ommalashayotgan-ligini kuzatishimiz mumkin [3].

«Humanity» (Shaxsga yo'naltirilgan) konsepsiyasi O'zbekistonda ham qabul qilingan va unga muvofiq xorijiy tillarni o'qitishga yo'naltirilgan ta'lim jarayoni va madaniyatlararo kommunikatsiya (muloqot)ning markaziy subyekti maqomi beriladi, uning qiziqish va ehtiyojlariga ustuvorahamiyat qaratiladi. Chet tilda nutqiy faoliyat yuritish talaba shaxsini shakllantirishga yo'naltiriladi, ya'ni o'rganilayotgan til sohibi yaratgan madaniy merosni o'zlashtirishga erishiladi.

Chet til o'qitish amaliyotida taklif etilgan qoidalar va qarashlar lingvodidaktik (tillar ta'limshunosligi) tamoyillar maqomida umumlashtirilgan va ilmiy asoslangan. Masalan, J.Jalolov nomlanishi va mohiyatida tafvutlar bo'lishiga qaramay, quyidagi didaktik tamoyillarni umumlashtirgan: tarbiyaviy ta'lim, onglilik, faollik, ko'rgazmalilik, sistemalilik (izchillik), individual yondashish, (bilimlarni) puxta o'zlashtirish, talaba kuchiga moslik kabilar [7]. N.A.Gorlova xorijiy tillarni o'qitishning didaktik tamoyillarini quyidagicha umumlashtirgan: faollik, ko'rgazmalilik, o'rgauvchi kuchiga moslik, individual yondashish, sistemalilik [6].

Ilmiy manbalarni o'rganib chiqib bo'lajak tarjimonlarda lingvomadaniy va kommunikativ kompetentsiyani rivojlantirishning didaktik tamoyillarini quyidagicha umumlashtirdik:

1. Talabalarining chet til o'rganish usullari, strategiyalari va qobiliyatini inobatga olish.
2. Tinglab tushunish mashqlariga ustuvor ahamiyat qaratish.
3. Darslarda ma'noli kontekstlar va mavzuga oid nutq vaziyatlarini yaratish.
4. Mashg'ulotlarda texnik vositalardan keng foydalanilish.
5. Talabalarining yoshiga mos autentik materiallaridan foydalanish.
6. Nutq namunalari asosida chet til o'rgatish.
7. Mavzularni obrazlashtirish.

Bo'lajak tarjimonlarda lingvomadaniy va kommunikativ kompetentsiyani rivojlantirishning psixolingvistik tamoyillarini ko'rib chiqish ham dolzarb pedagogik vazifadir. Til o'rganish aqliy faoliyat bo'lganligi tufayli uning psixologik asoslari mavjud. Aqliy faoliyat ruhshunoslikda ilmiy

ILMIY AXBOROT

jihatdan tekshiriladi. Shu munosabat bilan chet til o'qitishning psixologik tamoyillarini tadqiq etish ehtiyoji tug'iladi. Ilmiy manbalarda chet til o'qitishning ikkita psixologik tamoyillari ishlab chiqilgan. Psixologik tamoyillar «verbalizatsiya» (o'zga til amalda faqat og'zaki nutq orqali o'rganiladi) va «korrelatsiya» (chet til materialining muayyan chegarasi aniqlanadi, birinchi galda nutq malakalarini hosil qilish uchun mo'ljallangan til birliklari majmui shakllanadi) nomlarini olgan. Chet til o'qitishning tilshunoslik asoslari birmuncha tadqiq etilganligiga qaramay, metodika fanida chet til o'qitishning lingvistik tamoyillari masalasiga kam e'tibor qaratilgan.

XULOSA

Pragmatik kompetensiya tarkibidagi diskurs kompetensiya og'zaki yoki yozma nutqda fikrlarni tegishli til vositalari orqali ifodalashni nazarda tutadi. Diskurs kompetensiyasi og'zaki yoki yozma nutqdagi izchillikni ta'minlashda lingvistik signallarni tushunish va interpretatsiya qilish ko'nikmalarini nazarda tutadi.

Keyingi yillarda til kommunikatsiyasining pragmatik jihati tadqiqotchilar e'tiborini ko'proq jalb etmoqda. Ya'ni so'zlardan amaliy maqsadlarda foydalanishni o'rgatish masalasi keng muhokama etilmoqda. Til belgilari va ulardan foydalanadigan shaxslar o'rtasidagi pragmatik munosabatlar shundan iboratki, bu belgilar, aniqrog'i, ularning ma'nolari ayni shaxslar uchun xushhazm va tushunarli bo'lishi, ularni ma'lum darajada ta'sirlantirishi lozim.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёев 2018 йил 5 мартдаги Наманган вилояти Тўрақўрғон тумани Исоқхон Ибрат номидаги мактаб-интернатига ташрифидаги нутқи. Электрон ресурс: <http://www.uza.uz/oz/...prezidentimiz-is-okhon-t-ra-ibrat-mazhm>. Мурожаат санаси: 26.11.2018 й.
2. Driscoll P., Frost D. The teaching of modern foreign languages in the primary schools. – L.: & N.Y.: Routledge, 2005. – P. 17-18.
3. Pavesi M., et.al. Teaching through a foreign language: A guide for teachers and schools to using foreign languages in content teaching (CLIL). – Rome. Ministry of Education of Italy, 2001. – P. 32.
4. Williams M., Burden R. L. Psychology for language Teachers. A social constructivist approach. – L.: Cambridge University Press, 2010. – P. 40.
5. Аликина Е. В., Швецова Ю. О. Формирование экстралингвистической компетентности будущих устных переводчиков // Современные проблемы науки и образования. 2012. № 2. Электронный ресурс: <http://www.scienceeducation.ru/102-6037>. Дата обращения: 5.05.2018.
6. Горлова Н.А. Личностно-деятельностный метод обучения иностранным языкам дошкольников, младших школьников и подростков. Теоретические основы. – М.: МГПУ, 2010. – С. 182-190.
7. Жалолов Ж.Ж. Чет тил ўқитиш методикаси: чет тиллар олий ўқув юртлари (факултетлари) талабалари учун дарслик. – Т.: Ўқитувчи, 2012. – Б. 82-83.